

Bismillohir-Rahmonir-Rahim
 Hamd angakim, kalomi xayrmaol
 Qildi elga rasulidin irsol.
 Ul rasuleki, ham kalomi fasih
 Elga tegurdi, ham hadisi sahih,
 To ulus jahldin xalos bo'lub,
 Ilm xilvatgahiga xos bo'lub,
 Chun tamuqdin najot topqaylar,
 Uchmaq ichra hayot topqaylar.
 Jalla zikruh zihe ilohi rafikj,
 Azza kadruh zihe rasuli shafikj.

Sababi TaKjlifi Manzuma
 Ul safo ahli pok farjomni,
 Pokfarjomu pokfar Jomiy.
 Ul yaqin sori dastgir manga,
 Qiblavu ustodu pir manga
 Ki tutubdur jahonni tasnifi,
 Nazm devoni, nasr taKjlifi.
 Chunki hijratdin el arosida so'z
 Seksan olti edi-yu sekkiz yuz,
 Kim yana tuhfae ayon qildi,
 Tuhfa yo'q, turfae bayon qildi.
 O'qug'onda buxoriu muslim
 Qirq so'z borchha shubhadin solim.
 Nasr ila nazmin murakkab etib,
 Forsiy lafz ila murattab etib,
 "ArbaKjin"e chiqardikim, jonlar
 Balki qirq arbaKjin chiqorgonlar.
 Toptilar anda nashKjai maqsud,
 "ArbaKjin"din nechukki, ahli shuhud,
 Forsiydonlar aylabon idrok,
 Ory erdi bu nafKjdin atrok.
 Istadimki, bu xalq ham bori
 Bo'lmag'aylor bu nafKjdin oriy.
 Men demakni chu muddao aylab,
 Ul ijozat berib duo aylab.
 Muddao chun bori savob erdi,
 Har duo qilsa, mustajob erdi.
 Bir-iki kunki ehtimom ettim,
 Ko'z tutardin burun tamom ettim.
 Bor umidimki, shohi sharKjoyin
 Kim, nabiy sharKjiga berur tazyin,
 Ulki avroq aroki solg'ay ko'z,
 Aylagay ko'ngliga asar bori so'z.
 Nasridin dag'i bahravar bo'lg'ay,
 Nazmdin dag'i boxabar bo'lg'ay.
 Bu kun o'lqa hadislarga mutikj,
 Tongla bo'lg'ay muhaddis anga shafikj.

1. Lo yuKjminu ahadukum hatta yahibbu la ahihi ma yuhibbu li nafsihi.

Mo'Kjmin ermastur, ulki iymondin
 Ro'zgorida yuz safo ko'rgay,
 Toki qardoshiga ravo ko'rmas -
 Har nekim o'ziga ravo ko'rgay.

2. Man aKjta lillahi va manaKja lillahi va ahabba lillahi va abg'aza lillahi faqad-isKjtmala iymanahu.

Kimgakim hubbu bug'zu manKju ato
 Haq uchun bo'ldi jazm bil oni,
 Kim erur tengri lutfidin komil
 Ahli iimon qoshida iymoni.

3. Al-muslimu man salim al-muslimuna min yadihi va lisonihi.

Kim musulmonlig' aylasa daKjvo
 Chin emas gar fido qilur jonlar.
 Ul musulmondururki, solimdur.
 Tiliyu ilgidin musulmonlar.

4. Xislat aKjni lo yajtamiKjani fi mo'Kjminin al-buxlu va suKj ul-xulqi.

Mo'Kjmin ersang qilib durringni nisor,
 El bila ravshan o'l nechukkim shamKj.
 Negakim, tengri hech mo'Kjminda,

Buxlu badxo'ylyuqni qilmadi jamKj.

5. Yashibu ibnu adama va tashubbu fihi xislatoni al-hirsu va tul ul-amali.

Odamig'a agarchi voqeKj erur

Qarigan sori barcha ishda xalal.

Ikki feKjli vale yigitrak o'lur:

Biri hirsu birisi tuli amal.

6. Man lam yashkurinnasa lam yashkurillaha.

Ulki xoliqga shukr der, avval

Shokir o'lmoq kerak xaloyiqdin.

Kimki, maxluq shukrini demagay,

Demagay dag'i shukr xoliqdin.

7. Man lam yarhaminasa la yarhamhullohu.

Tengridin rahm agar tamaKj qilsang,

Avval o'lmoq keraksen elga rahim.

Har kishikim ulusqa rahm etmas,

Anga rahm aylamas rahimi karim.

8. Ad-dunyo malKjunatun va malKjunun ma fiyha illa zikrallohi taolo.

Dunyovu har ne andadur mavjud

Bo'ldi haq laKjnat giriftori.

G'ayri haq zikrikim, erur zokir

Tengrining rahmati sazovori.

9. LuKjina abd ud-diyari va luKjina abd ul-dirhami.

Rahmat ozodag'aki ul olmos,

Dahr dinoru dirhamin g'amg'a.

Lek laKjnat angaki qul bo'lg'ay:

Xoh dinoru xoh dirhamg'a.

10. Dum ala-t-tahorati yuvsaKju alayka-r-rizqu.

Gar hamisha tahorating bo'lsa,

Origay foqa chirki ul suvdin,

Tohir o'l istasang fuzun ro'ziy,

Xosir ulkim piturdi bul suvdin.

11. La yuldag' ul-mo'Kjminu min juhrin vohidin marratayni.

Eyki, bir nesh etti muzyidin

Ko'nglunga pecha uzaysa, yotla.

Chunki mo'Kjminni tishlamas hargiz,

Bir to'shukdin yilon iki qatla.

12. Al-vaKjdatu daynun.

Kimki har kimga vaKjdae qildi,

Shart erur vaKjdag'a vafo qilmoq.

VaKjdakim qilding o'yladurkim dayn,

Farzdur qarzni ado qilmoq.

13. Al-majolisu bil-amonati.

Qaysi majlisdakim eshitsang so'z,

Bilgil ul so'z sanga amonatdur.

Gar ani o'zga erda naql etsang,

Ul amonatg'a bu xiyonatdur.

14. Al-mustashoru muKjta'minun.

Har kishikim birovni mahram etib,

Mashvaratda amini roz etti,

Gar yashurdi bilib saloh so'zin,

O'zini qalbu hiylasoz etti.

15. As-samohu rabahun.

Mol bazl ila sud agar tilasang,

Oqibat chun o'lum erur mavjud.

Asragon qolur, ulki bazl etting

Sanga hamroh borurdin etting sud.

16. Ad-daynu shayn ud-dini.

Ahli din ul dururki qilg'ay ado,

Bot agar zimmäsinda dayn o'lg'ay.

Dayn adosi chu din alomatidur,

Beadoliq ding'a shayn o'lg'ay.

17. Al-qanoKjatu molun la yafna.

Hirdsin kechgil ul g'amedurkim,

Haddu g'oyat emas anga paydo.

Tut qanoatki, ul erur mole

Ki, nihoyat emas anga paydo.

18. Navm us-subayhati yamiaKj ur-rizqa.

Subh uyqusin ulki aylar tark

Rizqu ro'zin o'ziga to'sh ko'rgay.
 Ulki g'aflatdin etti navmi sabuh,
 Bu sharafni magarki tush ko'rgay.
 19. Ofat us-samohati al-mannu.
 Har kishiga riyoate qilsang,
 Minnat o'tkarmagil gumoningg'a.
 Negakim ul kishiga ofat erur,
 Yukla minnat va lek joningg'a.
 20. As-saKjidu man vuKjiza big'ayrihi.
 Elga ne kelsa aylamas pand,
 Ulki ko'nglini qildi g'aflat band.
 Kimki pand oldi elga tushgandin,
 Oni bilkim, erur saodatmand.
 21. Kafa bilmarKji isman an yuhaddisa bikulli ma yasmaKju.
 Bu yozuq bas kishigakim, eldin
 Har na so'zkim eshitti fosh etti.
 Tog' eshitganni der, gunohidin
 Go'yo tengri oni tosh etti.
 22. Kafa bilmavti vaKjizan.
 Voizing bas ato-ano o'lumi,
 Kim alarcha erur sanga nosih.
 Voize ul kim ayturu qilmas,
 Erur ul voizing munga rojih.
 23. Xayr un-nasi man yanfaKjuli-n-nasi.
 Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?
 Eshitib, ayla shubha rafKj andin,
 Yaxshiroq bil ani ulus arokim,
 Yetsa ko'prak ulusqa nafKj andin.
 24. Innalloha yuhib us-sahl at-talqa.
 Haq seni sevgay el bila bo'lsang,
 Tilu ko'nglungni qilib yakro'y,
 Nukta sursang shukuftau xandon,
 Zist qilsang kushodau xushro'y.
 25. Tahadu tahabbu.
 Do'stlashinglar hadiyalar berishib,
 Bahra topqon xirad atiyasidin.
 Xud jahonda atiyae bormu,
 Yaxshiroq do'stliq hadiyasidin.
 26. Utlob ul-xayri inda hisonil-vujuhi.
 Eyki, bir ishda hojating bo'lsa,
 Yaxshi yuzlukdin ista baxshoyish.
 Toki baxshoyishidin avvalroq
 Ko'rmagidin etushgay osoyish.
 27. Zur g'abban tazdad hubban.
 Bir-birin do'stlar agar gah-gah,
 Ko'rsalar, do'stuq o'lur g'olib.
 Shavqdin ixtilot o'lur matlub,
 Vasl uchun orzu o'lur tolib.
 28. Tuba liman shag'alahu ayбуhu an uyub-un-nasi.
 Ey xusho ulki, ayb ko'rmamak ila
 Yuz hunarvar marotibin topqay.
 YaKjni o'z aybi pardasi ko'ziga
 O'zga el aybi chehrasin yopqay.
 29. Al-g'inayakjsu mimma fi aydin-nasi.
 Boylig' istar esang el ilgidin
 Har na ko'rsang boridin o'l navmid,
 Bul g'ino, baski, xalqdin kechibon
 Tutsang ummid haqdin-o'q jovid.
 30. Min husnil islom il-marKji tarkuhu ma la yuiybuhi.
 Kimki islom ko'zgusida tilar
 Har zamon o'zga bir safo mavjud,
 Kechsun ul navKj borchcha ishdinkim,
 Tengri rozi emas, ulus-xushnud.
 31. Laysa ash-shadidu bisirKjati innama ash-shadid ul-laziyna yamliku nafsahu ind al g'azabi.
 Emas ul pahlavonki o'z qadrin
 Bosh uza eltibon nigun qilgay.
 Pahlavon oni bilki etsa g'azab
 Nafsi ammorani zabun qilg'ay.

32. Lays al-ganiyu an kasrat il arzi innamal-g'aniyu nafsi.

Boy emas ulki, mol kasratidin

Ko'rmagay foqau talab ranjin.

Oni bilkim, xudoy bermish anga

Nafsi ammora tarkini ganjin.

33. Al-hazmu suKj uz-zanni.

Hazm bois durur angaki, mudom

Ishi el sori badgumon o'lg'ay.

Doimo ehtiyot etar angakim,

Qayodlardin hama amon o'lgay.

34. Al-ilmu la yahillu manKjhu.

Ey xiradmand olimeki, sanga

Ilmdin ro'ziy ayladi soneKj.

Kishi o'rgansa qilmag'il mahrum,

Yoki naflolsa bo'lmag'il moneKj.

35. Al-kalimat ut-tayyibatu sadaqatun.

Yaxshi so'z birla hojat amlin so'r,

Bermasang yaxshi to'Kjmadin nafaqa.

Pe uchunkim rasul qavli bilan

Yaxshi so'z bordur uylakim sadaqa.

36. Kasrat uz-zihki yumiyt ul-qalba.

Asru ko'p kulmakim, o'lar ermish,

Zinda dil ko'ngli kulgu kasratidin.

Muni har kimki bildi ko'ngli bila,

Kulmagay o'lsa ko'ngli hasratidin.

37. Al-jannatu tahta aqdomi ummahati.

Onalarning oyog'i ostidadur

Ravzai jannatu jinon bog'i.

Ravza bog'i visolin istar esang,

Bo'l onaning oyog'i tufrog'i.

38. Al-balou muakkalun bin-nutqi.

Dedi ko'p so'zlagan xato ko'p etar,

Ulki derlar ani valiyulloh.

Har balokim etar-erur so'zdin,

Buyla hukm ayladi nabiyulloh.

39. An-nazaru ilal marKjatil-ajiabiyyati sahmun min sihami iblisa.

Solma ko'z kimsa bo'lsa nomahram,

Garchi nafsing topar nazorada sud,

Ki nazarkim harom-shaytonning

Novakidur va lek zahrolud.

40. Lo yashbaKj ul-mo'Kjminu duna jorihi.

Kimki mo'Kjmin durur qachon chidag'ay,

Kim o'zi to'qu qo'shni bo'lg'ay och.

Anga dog'i kerak etursa nasib,

Xonida gar qulochu xohi umoch.

* * *

Eyki, shaxsingni xoliqi fattoh

Dedi: "Xammartu arbaKjina saboh",

Erur ul arbaKjining avvali hol,

Ayla bu "ArbaKjin" bila aKjmol,

Ki bu navKj ikki "ArbaKjin" mavjud

Bo'lsa, shoyadki topqasen maqsud.

Yetsa maqsud muddao birla

Meni yod etgasen duo birla

Ki, Navoiyg'a ul duo etgay,

Bulbuli ruhig'a navo etgay.

Val-hamdu lillahi ala tavfiqi haazl-arbaKjini vas-salotu vas-salom at-tayyibin at-tohirina va sallama tasliman kasiyran.

"ArbaKjin"ning Izoh Va Tarjimalari

Sharq adabiyotida "arbaKjin" anKjanasi mavjud bo'lib, xalq orasida mashhur, eng sahib hadislardan 40 tasini saralab olib, uning mazmunini bir ruboiyda talqin qilingan. Abdurahmon Jomiyning "Chihil hadis"ini Alisher Navoiy turkiyga tarjima qilgan.

Shoirning niyati, asar muqaddimasida taKjkidlanganidek, "forsiydonlar idrok aylagan" qirq hadis mohiyatidan turkiyabonlarni ham bahramand qilish edi. Bu hadislarni sheKjrga solishda esa barcha shoirlar ularning oson tushunilishini, yodda saqlanilishini ham nazarda tutganlar.

Hadisi Sharif Tarjimalari

1. Sizlardan hech biringiz o'ziga ravo ko'rgan narsani birodariga ravo ko'rmaguncha, chin mo'Kjmnn bo'lolmaydi.

4 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

2. Khish bo'sha qayd qilishi, no'lin joyarga sa'lqinmaslikda, yaxshi odamlarni do'st va yomon odamlarni dushman tutishda faqat Ollohnning rizoligini niyat qilgay bo'lsa, demak u o'z iymonini butun saqlaydi.
 3. Qo'lidan va tilidan musulmonlarga ozor etmaydigan kishigina haqiqiy musulmondir.
 4. Mo'Kjmin kishida ikki xislat jamKj bo'lmaydi: baxillik va yomon xulqlilik.
 5. Inson keksaygan sari unda ikki xil xislat yasharib boradi: dunyoga muhabbat va orzu-havas.
 6. Kimki nnsonlarga shukr aytmasa Ollohga ham shukr qilmaydi.
 7. Odamlarga rahmli bo'lmanan kishiga Ollohnning ham rahmi kelmaydi.
 8. Dunyo malKjundur, Olloh zikridai boshqa dunyodagi befoyda ishlar ham malKjundur.
 9. Dinor va dirhamga qul bo'lganlarga laKjnat bo'lsin.
 10. Doim tahoratl yurgin, tahorat - tozalik rizqu ro'zingni oshiradi.
 11. Mo'Kjmin kishi bir teshikdan ikki marta chiqolmaydi.
 12. VaKjda - bu qarzdur.
 13. Majlislarda eshitganing - omonat.
 14. Maslahatchi - ishonchga sazovordir.
 15. Qo'li ochiqlik - foydadur.
 16. Qarz - bu din uzra dog'dur.
 17. Qanoat - tunganmas boylikdir.
 18. Tongi uyqu rizqni qisqartiradi.
 19. Minnat - saxiylik ofatidir.
 20. Boshqalardagi kamchilik ko'rib, o'zini tuzatgan odamb T"saodatlidir.
 21. Eshitgan gaplarini o'zgalarga aytish - insonning gunohga botishi uchun kifoyadir.
 22. O'lim - bu ayni pandu nasihatdur.
 23. Insonlarning yaxshisi - insonlarga foydasi tegadiganidir.
 24. Olloh taolo xushfeKj va ochiq yuzli bandalarini sevadi.
 25. Bir-biringizga hadyalar berib, do'stlashinglar.
 26. Yaxshilikni chehralari ochiq odamlardan kutinglar.
 27. Goh-goh ko'rishganda muhabbat oshar.
 28. O'z aybini bilib, boshqalar aybini qidirmaydigan odam - xo'b yaxshi odamdur.
 29. Haqiqiy boylikb T" bu odamlar qo'lidagi narsalardan noumid bo'lish, tamaKj qilmaslikdur.
 30. O'ziga yarashmagan narsalarnn tark etnsh - inson musulmonchiligining husnidur.
 31. Kurashda g'olib chiqqan pahlavon emas, balki g'azabi kelganda, o'zini bosib olgan odam pahlavondir.
 32. Boylik - molu dunyoning ko'pligi bilan emas, balki nafsning to'qligi bilan o'lchanadi.
 33. Ishonmaslik - ehtiyyotkorlikdir.
 34. Ilmda baxillik yo'q.
 35. Yaxshi so'z - sadaqadur.
 36. Kulgining ko'pi - qalb o'limi.
 37. Jannat onalarining oyog'i ostidadur.
 38. Hamma balo - tildandur.
 39. Begona asllarga tashlangan har bir nazar b T"shayton o'qidur.
 40. Mo'Kjmin kishi qo'shnisi och turib, o'z qornini to'yg'azmaydi.
- Shul "ArbaKjin"ga muvaffaq etgani uchun Ollohga shukr. (Muhammad) va uning barcha pok nasliga Ollohnning marhamat va rahmati hamda salomi bo'lsin.

Hadislarni TDSHI aspiranti Mansur Asqarov tarjima qilgan.